

**AMALIY BEZAK SAN'ATI VA XALQ HUNARMANDCHILIGIDA
GULLARNING RAMZIY IFODALANISHI**

Panayeva Maloxat Muminovna – Urganch davlat pedagogika instituti
“San’atshunoslik” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm kulolchilik san’atiga katta hissa qo‘shgan ustalardan biri Raimberdi Matchonov Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O‘zbekiston amaliy bezak san’atida alohida o‘rin tutganligi va o‘zining uslubi avloddan avlodga davom etib kelayotgani haqida bayon etilgan. Moychechakning hunarmandchilikda ishlatilishi stilizatsiya va ramziy ma’noda ifodalanishi yoritilgan.

Kalit so‘zi: Hunarmandchilik, kulolchilik, Raimberdi Matchonov, Odilbek Matchonov, gul, moychechak.

**СИМВОЛИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ЦВЕТОВ В ДЕКОРАТИВНО-
ПРИКЛАДНОМ ИСКУССТВЕ И НАРОДНОМ РЕМЕСЛЕ**

Панаета Малохат Муминовна — преподаватель кафедры
«Искусствоведение» Ургенчского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье рассматривается вклад одного из выдающихся мастеров хорезмской керамики — Раимберди Матчонова. Освещается особое место хорезмской школы художественной керамики в декоративно-прикладном искусстве Узбекистана, а также преемственность его уникального стиля, передающегося из поколения в поколение. Раскрываются особенности использования ромашки в ремесленном искусстве, её стилизация и символическое значение.

Ключевые слова: ремесло, керамика, Раимберди Матчонов, Одилбек Матчонов, цветок, ромашка.

**SYMBOLIC REPRESENTATION OF FLOWERS IN DECORATIVE AND
APPLIED ART AND FOLK CRAFTS**

Panayeva Malokhat Muminovna — Lecturer at the Department of Art Studies, Urgench State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the contribution of one of the prominent masters of Khorezm ceramics, Raimberdi Matchonov. It highlights the special place of the Khorezm school of artistic ceramics in the decorative and applied arts of Uzbekistan, as well as the continuity of his unique style passed down from generation to generation. The use of the daisy in handicrafts, its stylization, and its symbolic meaning are also discussed.

Keywords: handicraft, ceramics, Raimberdi Matchonov, Odilbek Matchonov, flower, daisy.

Ma'lumki, tasviriy san'at inson zotini mehnatga, aql-idrokka, tafakkur qilishga, ijod qilishga, go'zallikka intilishga o'rgatib, unda chiroyli, go'zal ma'naviy dunyosini yaratib keldi. Bugungi kunda tasviriy san'at odamlar va uning jamiyati uchun yuksak aql-idrok, chuqur bilim va tafakkur, go'zal turmush va e'tiqod yaratishini hamma yaxshi biladi. Shuningdek, kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, odam zotini eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan bosh va asosiy vosita ekanligi isbotlanmoqda.

Bolalar ko'nglida go'zallik va yuksak g'oyalar hissini uyg'otishga da'vat etishda tasviriy san'at o'qituvchisining o'rni g'oyat kattadir. Bolalar ma'naviy didini rivojlantirish uchun o'qituvchi, avvalo, ularning e'tiborini hayotdagi go'zallikka qaratishga, go'zallikni payqash, his etish, qabul etish, huzurlanish, quvonishga o'rgatish kerak. Did insonning tug'ma xususiyati emas. U rivojlantiriladi, maktabda uni takomillashuviga yordam beruvchi birinchi inson tasviriy san'at o'qituvchisidir.

O'qituvchi bolalarga tabiatning rang-barang olamini, rang-barang shakllarini ko'rsatadi. Tabiat go'zalligi, ochiq havoda o'tkazilgan kunlar haqida xotiralar, ular hayotda ko'rib baxri-dillarini ochilgan, tasvirlash qiyin bo'lgan gulzorlarning ranglari - ularning ko'nglini shodixondan etgan, hayajonlantirgan narsalarning xotirasi uzoq vaqtgacha o'quvchi qalbida saqlanib qoladi. O'quvchilar naturadan manzara, daraxt

shoxlari, yaproqlar, gullarning rasmini chizar ekanlar, ularning shakllarini o'rganar ekanlar, tabiatga, uning shakl va ranglari naqadar boy va turfaligiga amin bo'ladilar, tabiatdagi go'zallikka, voqea-hodisalarga mehr-muhabbatlari osha boradi. Maktabdagi rasm darslari tufayli kishi dunyonini har yoqlama ko'radigan bo'ladi, ularning kuzatuvchanligi rivojlantiriladi, mantqiy fikrlashga o'rgatadi, ko'rgan narsani anglab etishga o'rgatadi.

Ota-bobolarning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi. Diniy, axloqiy, ilmiy adabiy qarashlarni ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan. Avesto deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorliklarning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, hozirgi davrgacha etib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun ushbu tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.

Amaliy san'atga bu qadar chuqur falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stilizatsiya - ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o'zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo'lgan va hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, xattotlik, tosh-taroshlik va boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg'unligidan va mujassamligidan dalolatdir. Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o'zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy - ahloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda, hamda madaniy darajasini oshirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Xiva naqshi Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Buxoro naqshidan tubdan farq qiladi. Xiva naqshida asosan zangori va yashil ranglar juda ko'p ishlatilgan. Islimiy naqsh kompozitsiyasida novda, marg'ula, shukufta, barg, no'xat, gul, oddiy oyguldan tashkil topadi. Ko'pincha yulduz hosil qiluvchi girixlar ishlatilib, orasi spiralsimon islimiy naqsh bilan boyitilgan. Xiva naqshlari umuman madohilli naqshlar asosida tuziladi. Islimiy naqsh esa spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshlik

maktabining yorqin namoyandalari Abdulla Boltaev, Ro‘zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapaev va boshqalar

Kulolchilik qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratgan Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’atidir. Bu qora loy, saxovat, xalollik, ezgulik timsolidir. Tuproq insonlarning barcha extiyojini o‘z zimmasiga olgan. Farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishi san’atining zaminidir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi.

O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo‘lsa-da uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan, piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, ko‘rilish materiallari va boshqalar tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega.

Xorazm kulolchilik san’atiga katta hissa qo‘shgan ustalardan biri Raimberdi Matjonovdir. Raimberdi Matjonov - Xorazm badiiy kulolchilik maktabi O‘zbekiston amaliy bezak san’atida alohida o‘rin tutdi. Kulolchilik maktabi Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro va bosh shaharlar kulolchilik maktablaridan o‘ziga xos yasash uslubi, texnologiyasi, naqsh kompozitsiyalari, koloriti, dinamikligi kishilarga estetik ta’sirchanligi bilan alohida o‘rin tutadi. Xorazmda bu qadimiy san’at avloddan-avlodga an’ana tariqasida o‘tib hozirgi kunda ham rivojlanib, takomillashib kelmoqda.

Ma’lumki, har bir naqsh namunasi o‘ziga xos naqsh elementlarining yig‘indisidan iborat. Stilizatsiya o‘simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo‘shish mumkin bo‘lgan bezak shakliga keltiriladi. Bunda o‘quvchi butun bir yaxlit predmetning tashqi ko‘rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lo‘nda qilib tasvirlashni o‘rganadi. Xalq ustalari qadimdan qo‘llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqelikning shartli tasviri bo‘lishiga qaramasdan o‘ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o‘zidan olingan. O‘simliklar faqat bir tomonga qarab o‘sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o‘sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo‘lib, bir tomonlama yo‘nalishda davom

etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o‘z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog‘oz betini to‘ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir.

O‘simlik shakllarining ko‘pligiga qaramay, islmiy shakli yetakchi o‘rinni egallaydi. “Islmiy” tushunchasi ko‘pgina usullarda bajarilgan gajaksimon bargning tasvirini hamda mayin chiziqlarda bajarilgan o‘simlik rasmini nazarda tutadi.

Gullar - islmiy naqsh elementi bo‘lib, naqshlarga targ‘il pardozi berilganidan so‘ng yanada ko‘rk va husn bag‘ishlaydi. Gul elementlari asosan naqsh shakllarining markaziy qismlariga joylashtiriladi. Gullarning ham behisob turlari mavjud bo‘lib, o‘ziga xos nomlar bilan ataladi. Gul turlariga oddiy va murakkab ko‘rinishdagi oygul, lola, paxtagul, chinnigul, pistagul, kuvachagul, karnaygul, safsargul, atirgul, nargizagul va boshqa gul turlari kiradi.

Gul - go‘zallik, muhabbat, yaxshilik, himmat ifodasi. Gul – jannatdan olingan ajoyib ne‘matdir. Hayotimizni gulsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Gulni ayol, ya‘ni hayot guliga va naqsh atamasi o‘rnida ham ishlatiladi.



Moychechak (Romashka) - mehribonlik, kamtarlik, aybsizlik, muloyimlik, samimiylik tuyg‘ular, yoshlik va romashkani ramziy qiladi. Har qanday guldasta yoki kompozitsiyada romashka engillik, omad va tinchlikni anglatadi. Bodom - baxt, iqbol. Barg - bahorgi uyg‘onish

Qalampir - har xil yomonliklardan va yomon ko‘zdan asrash ramzi. Zirk guli (Gulsafsar) - osoyishtalik va umr uzoqligi.

Anor - ezgulik, to‘qchilik, to‘kin sochinlik. Oygul - baxt, iqbol ramzi. Jingala - to‘kin sochinlik, boylik ramzi. Olma - muhabbat ramzi. Novda - boylik va farvonlik.

Yaproq - to‘qchilik, bahorgi uyg‘onish, navro‘z. Isiriq - yomon ko‘zdan asrash ramzi.

Atirgul - go‘zallik ramzi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek xalq amaliy san‘ati qadimiyligi, madaniyatining boy hamda serqirraligi bilan butun dunyoga mashhurdir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va boshqa shaharlardagi har bir tarixiy

obida, har bir xalq amaliy bezak san'ati namunasi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan takrorlanmas, bebaho san'at asarlari bo'lib, jahon madaniyati dundonalari qatoridan o'rin olgan. Xalq ustalarining mahoratini namoyish etuvchi an'anaviy sirlangan kulolchilik – xalqimizning umumjahon san'ati xazinasiga qo'shayotgan noyob hissassi ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda an'anaviy kulolchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni faol rivojlantirish – milliy o'zbek badiiy madaniyatining takrorlanmas qiyofasini namoyon etuvchi ushbu noyob hunarmandchilik turining istiqboli yuksakligining yorqin dalilidir. Tasviriy san'at har bir sohani ijodkori uchun rasm chizishni bilish unga katta ijodiy imkoniyat va ozuqa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalq badiiy hunarmandchilik va Amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni-T.;«Toshkent oqshomi» gaz.2 aprel. 1997.38–son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni. 17-noyabr 2017-yil. S.S.Bulatov. “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati ensiklopediyasi” Toshkent- 2014
3. S. Bulatov. “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati” Toshkent Mehnat 1991
4. S.S.Bulatov, M.S.Soipova “Badiiy tahlil tamoyillari” Toshkent-2006
5. S.S.Bulatov “Rangshunoslik” Toshkent-2009
6. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova “Rangtasvir” Toshkent- “O'zbekiston”-2006
7. Sh.Jumaev “O'quvchilarning ramziylikka oid bilimlarini rivojlantirish” Samarqand- 2015
8. Пугаченкова Г.А, Ремпел Л.И.Выдающиеся памятники изобразительного искусства Узбекистана Т.1960 г. Стр 113-122
9. Пугаченкова Г.А.Из художественной сокровищницы Среднего Востока. Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма Т.1987 г.
- 10.Пещерова Е.М. Гончарное производство Средней Азии.–М-Л.,1989.–240 с.

11. Autor of the Scientific Project: Professor A.A. Khakimov, DA, Member of the academy of arts of Uzbekistan. Atlas of Central Asian Artistic Crafts and Trades. Volume I Uzbekistan. pp.11-19.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING